



KIDARLAR BOSHQARUVI CHOG'IDA TURON: SIYOSIY MEROS, RAQOBAT VA TARIXIY AHAMIYATI

Nurullayev Jaxongir Abdumalikovich

Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti doktoranti

Markaziy Osiyo qadimdan Sharq va G'arbni bog'lab turgan geostrategik hudud sifatida alohida ahamiyat kasb etib kelgan. IV–V asrlarda bu mintaqa murakkab siyosiy jarayonlar girdobiga tushdi. Kushon imperiyasining zaiflashuvi va Sosoniylar imperiyasi ta'sirining kuchayishi natijasida yangi ko'chmanchi-siyosiy kuchlar tarixiy sahnaga chiqdi. Ana shunday kuchlardan biri – Kidariylar sulolasi bo'lib, ular qisqa muddat hukmronlik qilgan bo'lsa-da, Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida sezilarli iz qoldirishga muvaffaq bo'ldi. Kidariylar faqatgina harbiy kuch emas, balki o'z davri uchun siyosiy va madaniy jihatdan ham muhim hodisa edi. Ularning faoliyatini o'rganish Turon tarixidagi davlat boshqaruvi, xalqaro aloqalar va ko'chmanchi sulolalar merosini tahlil qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu tezisda Kidariylarning kelib chiqishi, siyosiy faoliyati, qo'shni imperiyalar bilan bo'lgan munosabatlari, Hindiston va Gandharadagi faoliyati, shuningdek ularning numizmatik merosi hamda diniy-siyosiy ahamiyati keng yoritiladi. Bundan tashqari, Kidariylarning Turon tarixidagi o'rni va keyingi sulolalar uchun qoldirgan tajribasi ham tahlil qilinadi.

Kidariylarning kelib chiqishi masalasi tarixshunoslikda turli talqinlarga ega. Ba'zi tadqiqotchilar ularni xunlar bilan bog'lasa, boshqalari Kushon imperiyasi parchalanishi natijasida yuzaga kelgan mahalliy hukmdorlar sifatida ko'rsatadi. Lotin manbalarida ular 'xioniylar', yunon tarixchilarida 'kidariy xunlar', hind yozuvlarida 'huna', arman manbalarida esa 'kushonlar' deb qayd etilgan. Bu xilma-xillik ularning etnik jihatdan birlashgan emas, balki turli qabilalardan iborat ittifoq bo'lganini ko'rsatadi.

Asosiy hukmdor Kidara nomidan ularning davlati Kidariylar deb atalgan. Kidara o'zini Kushonlarning merosxo'ri deb e'lon qilib, tangalarida 'Buyuk Kushon podshosi' unvonini ishlatgan. Balx poytaxt sifatida tanlangan bo'lib, bu tanlov bejiz emas edi. Balx qadimdan Kushonlar markazi bo'lib kelgan, shuning uchun bu qadimiy shaharni siyosiy markaz sifatida qayta tiklash Kidariylarning legitimligini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Arman va Xitoy manbalarida ham Kidariylar ko'pincha Kushon nomi bilan ataladi. Bu esa ularning ataylab Kushon siyosiy merosini davom ettirganini ko'rsatadi. Shu tariqa, ular o'zini tarixiy asosga ega hukmdor sifatida tanitishga intildi. Bu esa ularning qisqa muddat hukmron bo'lishiga qaramay, mahalliy aholining ularni qabul qilishini osonlashtirdi.

Kidariylarning siyosiy faoliyatida muhim jihat shundan iborat ediki, ular ko'chmanchi qabila bo'lishiga qaramay, o'troq hududlarda hukmronlik qilgan. Bu esa ularni faqatgina harbiy kuch emas, balki siyosiy tashkilot sifatida ham ko'rsatadi. Ular mahalliy boshqaruv tizimlarini saqlab qoldi, shu orqali keng hududlarni tezda o'z nazoratiga olishga erishdi.



Masalan, So'g'd va Toxariston shaharlarida Kushon davridan qolgan ma'muriy tizim amalda saqlangan.

Kidariylar iqtisodiy hayotga ham ta'sir ko'rsatdi. Ularning davrida savdo yo'llari nisbatan barqaror bo'lib, Hindiston, Eron va Markaziy Osiyo o'rtasidagi savdo aloqalari qayta jonlandi. Panjikent va Kushaniya kabi shaharlarning rivojlanishi ularning siyosiy faoliyati bilan bog'liq. Ayniqsa, Panjikent keyinchalik So'g'd madaniyatining markaziga aylandi, bu esa Kidariylar davridan boshlangan urbanizatsiya jarayonining natijasidir.

Kidariylarning siyosiy hokimiyati tangalarda ham yaqqol aks etgan. Ularning tangalari nafaqat iqtisodiy muomalada, balki siyosiy legitimlik vositasi sifatida ham xizmat qilgan. Tangalar orqali ular o'z hokimiyatini aholiga tanitgan va bosib olingan hududlarda o'zining qonuniy hukmdor sifatida ko'rsatishga erishgan.

Kidariylar va Sosoniylar o'rtasidagi munosabatlar murakkab bosqichlarni bosib o'tdi. Dastlab ular Shapur II davrida Rimga qarshi ittifoqdosh bo'lib jang qilgan. Ammo Kushon merosi ustidan da'vogarlik ikki tomon o'rtasida keskin raqobatni keltirib chiqardi. Sosoniylar Sharqiy yurishlari aynan Kidariylar kuchayishining oldini olishga qaratilgan edi.

Yazdigard II davrida (438–457) olib borilgan yurishlar natijasida Kidariylar qisqa muddat Sosoniylarga bo'ysungan. Biroq ular tez orada mustaqilligini tiklab oldi. Eng keskin to'qnashuv Peroz I davrida yuz berdi. Kunxas boshchiligidagi Kidariylar Sosoniylarning hiylasini fosh etib, 300 zobitni qatliom qilishi tarixiy manbalarda alohida qayd etiladi. Bu voqea ikki davlat o'rtasidagi ishonchsizlikni yanada kuchaytirdi. Nihoyat, 467-yilda Balx qo'lga olindi va Kidariylar Toxaristondagi hukmronligini yo'qotdi.

Toxaristondagi hukmronligini yo'qotganidan so'ng Kidariylar Gandhara va Panjobga yo'l oldi. Bu yerda ular Gupta imperiyasi bilan to'qnashdi. Skandagupta davrida (455–467) Kidariylar Hindiston shimoli-g'arbiy hududlariga bostirib kirib, Gupta davlatining kuchsizlanishiga sabab bo'ldi. Ularning zarbalari natijasida Guptalar ichki siyosiy inqirozga yuz tutdi.

Gandhara va Panjobdagi Kidariylarning faoliyati qisqa muddatli bo'lsa-da, mintqa tarixiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda ular buddist markazlar bilan yaqin aloqada bo'lib, diniy-ma'naviy hayotga ham ta'sir o'tkazgan. Ammo V asr oxirida Eftaliylarning paydo bo'lishi ularning Hindistondagi mavqeini ham yo'qqa chiqardi.

Kidariylarning tangalari ularning siyosiy faoliyati va madaniy merosini o'rganishda asosiy manbalardan biridir. Tangalarida Kushon ikonografiyasi, Sosoniy tipidagi otashqada va hind Shiva tasvirlari uyg'unlashgan. Bu ularning siyosiy strategiyasi — o'zini har xil madaniy muhitlarga moslashtirish va legitimlikni ta'minlash yo'lidan dalolat beradi.

Sug'd hududida topilgan tangalarda 'kydr' yozuvi uchraydi. Bu yozuv Kidariylar davlati qisqa muddat hukmronlik qilganidan dalolat beradi. Toxariston hududida zarb etilgan oltin dinorlar esa ularning iqtisodiy qudratini ko'rsatadi. Tangalar va muhrlardagi yozuvlar Baqtriya, so'g'd, pahlaviy va braxmiy tillarida bo'lib, bu ko'p madaniyatli muhitni tasdiqlaydi.





Diniy jihatdan Kidariylar Buddizm, Zardushtiylik va hind diniy an'analari bilan aloqada bo'lgan. Ularning diniy siyosati keskin qarama-qarshilikdan ko'ra, murosaga asoslangan edi. Bu esa bosib olingan xalqlarni o'z hukmronligi ostida saqlashga imkon berdi.

Xulosa

Kidariylar hukmronligi qisqa muddatli bo'lsa-da, Turon va Hindiston tarixida chuqur iz qoldirdi. Ular Kushon merosini davom ettirish orqali siyosiy legitimlikni ta'minladi, Sosoniylar va Guptalar bilan kurashda o'z kuchini namoyon qildi. Ularning mag'lubiyati Eftaliylar uchun yo'l ochib berdi, ammo bu sulola keyingi ko'chmanchi davlatlarga tajriba maktabi bo'lib xizmat qildi. Shu sababli, Kidariylarni faqatgina qisqa muddatli siyosiy kuch sifatida emas, balki Markaziy Osiyo tarixida yangi davrni boshlab bergan siyosiy hodisa sifatida baholash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ammianus Marcellinus. *Rerum Gestarum*. Vols. XVI–XIX. Translated by J. C. Rolfe. London: William Heinemann, 1935.
2. Bivar A. D. H. "The Kushano-Sassanian Coin Series." *The Numismatic Chronicle*, 1956, pp. 246–262.
3. Cribb, Joe. "The Kidarites: The Numismatic Evidence." In: *Coins, Art and Chronology II: The First Millennium CE in the Indo-Iranian Borderlands*, edited by M. Alam and D. Klimburg-Salter, 91–146. Vienna: Austrian Academy of Sciences, 2010.
4. Enoki, Kazuo. "On the Date of the Kidarites." *Acta Asiatica* 16 (1969): 83–108; see also *Memoirs of the Research Department of the Toyo Bunko* 28 (1970): 1–26.
5. Frantz Grenet. "Regional Interaction in Central Asia and Northwest India in the Kidarite and Hepthalite Periods." *Bulletin of the Asia Institute* 17 (2003): 133–143.
6. Khodadad Rezakhani. *ReOrienting the Sasanians: East Iran in Late Antiquity*. Edinburgh: Edinburgh University Press, 2017.
7. Litvinsky, B. A., Doniy, A., and Safi, M. H. Z. "Eastern Kushans, Kidarites in Gandhara and Kashmir, and Later Hephthalites." In: *History of Civilizations of Central Asia*, vol. III, edited by B. A. Litvinsky, 135–152. Paris: UNESCO Publishing, 1996.
8. Martin, M. F. C. "The Kushan Succession." *Journal of the Royal Asiatic Society*, 1937, pp. 153–164.
9. Marshak, Boris. "Central Asia from the Third to the Seventh Century." In: *History of Civilizations of Central Asia*, vol. III, edited by B. A. Litvinsky, 225–241. Paris: UNESCO Publishing, 1996.
10. Zeimal', E. V. "The Kidarite Kingdom in Central Asia." In: *History of Civilizations of Central Asia*, vol. III, 123–142. Paris: UNESCO Publishing, 1996.
11. Зеималь, Е. В. "Политическая история древней Трансоксании по нумизматическим данным." В: *Культура Востока. Древность и раннее средневековье*, с. 192–214. Ленинград: Наука, 1978.





12.Энциклопедия Ираника. “Kidarites,” ред. Хромов А. М., Зеималь Е. В. Online edition. <https://iranicaonline.org/articles/kidarites>

13.Priscus of Panium. *Fragmenta Historicorum Graecorum*. Ed. R. C. Blockley. Liverpool: Liverpool University Press, 1983.

14.Lazar of Parpi. *Patmut'iwn Hayots (History of Armenia)*. Translated by R. W. Thomson. Atlanta: Scholars Press, 1982.

